

**SULTON QOBUSNING HOKIMIYATGA KELISHI VA
MODERNIZATSIYANING DASTLABKI BOSQICHLARI**

Ilmiy rahbar: Tursunova Suriya Minovarovna

t.f.n., katta o‘qituvchi

Muallif: Razzoqova Zarina O‘tkir qizi

TDSHU, 1-bosqich magistranti

zarinarazzoqova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-3518-9735>

<https://www.webofscience.com/wos/author/record/OKS-6914-2025>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sulton Qobus bin Said Al Saidning 1970-yil hokimiyat tepasiga kelishi va uning rahbarligida Ummon sultonligida amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlarining dastlabki bosqichlari tahlil qilinadi. Sulton Qobusning hokimiyatni otasi Said bin Taimurdan tinch yo‘l bilan qabul qilgani va mamlakatni izolyatsiyadan chiqarish, xalqni zamonaviy taraqqiyot sari yetaklashdagi faoliyati yoritiladi. Modernizatsiyaning dastlabki bosqichida amalga oshirilgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Ummon, Sulton Qobus, modernizatsiya, iqtisodiy islohotlar, siyosiy islohotlar, modern davlat, diplomatiya, tashqi siyosat.*

Annotation: *This article explores the accession of Sultan Qaboos bin Said Al Said to power in 1970 and examines the initial stages of modernization implemented in the Sultanate of Oman under his leadership. The study emphasizes Sultan Qaboos’s peaceful transfer of power from his father, Said bin Taimur, and his strategic efforts to end the country’s long-standing isolation while guiding it toward comprehensive modernization. Particular attention is given to the early social, economic, cultural, and political reforms introduced during this transformative period, as well as their broader implications for Oman’s national development and integration into the modern world.*

Keywords: *Oman, Sultan Qaboos, modernization, economic reforms, political reforms, modern state, diplomacy, foreign policy.*

Adabiyotlar tahlili: *Bu yo‘nalishda eng muhim manbalardan biri J. Petersonning “Oman’s Insurgencies: The Sultanate’s Struggle for Supremacy” asaridir. Muallif Sulton Said bin Taimur davridagi izolyatsiya siyosati va Qobusning 1970-yildagi tinch to‘ntarish orqali hokimiyatga kelishini tahlil qiladi. Petersonning ishlari Qobusning hokimiyatga kelishi va siyosiy legitimatsiya jarayonini chuqur yoritgani bilan ahamiyatlidir. R. Al-Abri*

tomonidan yozilgan maqolalarda esa Qobus shaxsiyatining davlat qurilishidagi roli, milliy birlik yaratish va jamiyatni ishonch asosida boshqarish uslubi ta’kidlanadi. Ushbu asarlar tarixiy-biografik manba sifatida asosiy nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Siyosiy modernizatsiya jarayonlarini o‘rgangan eng asosiy manbalardan biri J. C. Wilkinsonning “The Imamate Tradition of Oman” nomli asaridir. U Ummonning an’anaviy imamat tuzumi va Qobus davridagi monarxik-modern tizimning o‘zaro munosabatlarini ilmiy tahlil qiladi.

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmida arab olamida modernizatsiya va siyosiy yangilanish davri bo‘ldi. Bu jarayonlarning yorqin namunasi sifatida Ummon sultonligini ko‘rsatish mumkin. 1970-yilda Ummon Sultonligida siyosiy o‘zgarish, Sulton Qobus bin Saidning hokimiyat tepasiga kelishidir. Otasi Sulton Said bin Taimur davrida cheklangan siyosat, ijtimoiy izolyatsiya iqtisodiy sustlik hukm surayotgan edi. Sulton Qobus hokimiyatni qo‘lga olishi bilan mamlakat taqdirini o‘zgartirgan tarixiy burilish yasadi. Mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlar boshlandi. Bu davrni “Ummonning uyg‘onish davri” (Nahda) deb atashadi.

Asosiy qism

1. Sulton Qobusning hokimiyatga kelishi.

1970-yilda qonsiz saroy to‘ntarishi natijasida Qobus ibn Said hokimiyatga keldi. Bu Britaniya nazorati ostidagi Ummon qurolli kuchlari qo‘llab-quvvatlovi bilan sodir bo‘ldi⁵. 1970-yil 23 iyulda Said ibn Taimur o‘g‘li foydasiga taxtdan voz kechish hujjatini imzolashga majbur bo‘ldi.⁶ Bu voqea Ummon tarixida qon to‘kilmagan inqilob sifatida qayd etildi. Hokimiyat almashinuvi xalq tomonidan iliq kutib olindi, chunki yangi sultonning asosiy maqsadi xalq farovonligi va mamlakatni zamonaviy yo‘lga qo‘yish edi. Qobus hokimiyatga kelishi bilan mamlakatni modernizatsiya qilishni boshladi. Boshqaruvni qo‘lga olgan ilk kuniyoq quyidagi so‘zlar bilan chiqish qildi: “Men sizlarni o‘tmishdagi zulmatdan yangi davr nuriga olib chiqaman”.⁷ Bu xalq orasida umid va ishonch uyg‘otdi. Barqaror ijtimoiy va hukumat infratuzilmasini yaratish ko‘pgina sohalarda ayniqsa, modernizatsiya dasturini joriy etishda muhim domino effekt yaratdi. Ummon modernizatsiya dasturi konsensus orqali, xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda, mamlakat bo‘ylab barqarorlikni ta‘minlashga olib keldi. Sulton Qobus Ummonning o‘ziga xos sharoitlariga mos keladigan, pragmatik modernizatsiya yo‘lini tanladi. Bu siyosat ikki qarama-qarshi yo‘l-keskin o‘zgarishlar yoki mutlaqo o‘zgarimaslik o‘rtasida yangi ummoniy yo‘lni yaratdi.⁸

⁵ Allen, Calvin H. & Rigsbee, W. Lynn. Oman Under Qaboos: From Coup to Constitution, 1970-1996. London: Frank Cass, 2000, p. 26-34

⁶ Owtram, Francis. A Modern History of Oman: Formation of the State since 1920. London: I.B. Tauris, 2004, p. 137.

⁷ Sultan Qaboos’s first speech, 23 July 1970 (Oman Radio archive va Royal Court records).

⁸ Valeri, Marc. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. 2nd ed. London: Hurst, 2017, p. 67-69.

2. Modernizatsiyaning dastlabki bosqichlari (1970-1980) 1970-yil 23-iyulda Sulton Qobus oldida ko‘plab tanlovlar, imkoniyatlar, lekin shunchalik cheklovlar ham bor edi. Otasi davrida parallel imomat davlati tugatilgan, kuch va shaxsiy obro‘ bilan boshqaruv amalda edi. Said bin Taimur davrida resurslar to‘liq ishlatilmagan, u o‘z oilasining boyligini saqlab qolishga harakat qilgandi⁹. Sulton Qobus esa butunlay boshqacha yo‘l tutdi: u resurslarni to‘liq ishga soldi, shaharlar qurish, konsensus va konsultatsiya yo‘li bilan mamlakatni boshqarish dasturini boshladi. U neft boyligi faqat bir guruhga berilib, qolganlari passiv qoladigan “ijara davlati” tuzumidan qochdi. Aksincha, u doimiy ravishda ummoniy jamiyat va ummoniy xalqning faol ishtirokini talab qildi. “Muborak Rennessans” (Blessed Renaissance) tushunchasi ham shundan kelib chiqadi: u o‘tmish va kelajakni bog‘lab, hukumatni ham modernizatsiya qildi.¹⁰ Yaqin Sharqning boshqa joylarida bo‘lgani kabi orqaga qaytish (backlash) xavfidan qochdi.

Sulton tartibning asosiy mezonini saqlab qoldi va dengiz va quruqlik bo‘ylab hali aniq belgilab qo‘yilayotgan Ummon Sultonligi chegaralarini himoya qildi. U zarur bo‘lganida qat‘iy kuch ishlatdi va tashqi kuchlar tomonidan moliyalashtirilgan ko‘plab qo‘zg‘olonlarni bostirdi.

O‘sha paytdan arab va ingliz tillarida “Ummon radiosi” ishlay boshladi. Biroz keyin arab tilida “salola radiosi” ishga tushdi. 1972-yildan arab tilida kunlik gazeta “Ummon” va “Al-vatan” chiqa boshladi. Sulton Qobus hokimiyatning dastlabki 10 yilligida keng ko‘lamli modernizatsiya siyosatini amalga oshirdi. Neft eksporti (1970-yilda kuniga 300 ming barrel) modernizatsiyaning asosiy moliyaviy manbai bo‘ldi.¹¹ Daromadlar markazlashgan rejalashtirish orqali quyidagi loyihalarga yo‘naltirildi.

Transport infratuzilmasi: Muskat-Matrah yo‘li (1970-1972) birinchi zamonaviy avtomagistral qurildi. Salola porti modernizatsiyasi (1971-1974), eksport import hajmi 5 barobar oshdi. Muskat xalqaro aeroporti (1973) birinchi xalqaro reyslar boshlandi.¹²

Telekommunikatsiya: 1972 yilda birinchi avtomat telefon stansiyasi, radio va televideniya tarmoqlari ishga tushdi. 1975-yilda, rangli televizor mo‘jizasini boshdan kechirayotgan ummonliklarga bevosita murojaat qilgandek, Sulton Qobus shunday dedi: “Bugun men sizlarga Ummon Rangli Televidinyasi orqali murojaat qilayotganimdan mamnunman”.¹³

⁹ Skeet, Ian. Oman: Politics and Development. London: Macmillan, 1992, p. 19-25.

¹⁰ “Muborak Rennessans” atamasi ilk marta 1980-yil Milliy kun nutqida ishlatilgan (Oman Ministry of Information archive).

¹¹ OPEC Annual Statistical Bulletin 1971; Oman Ministry of Oil and Gas historical data.

¹² Ministry of Transport and Communications, Sultanate of Oman. Fifty Years of Development 1970-2020. Muscat, 2020.

¹³ Sultan Qaboos speech on the opening of colour TV, 1975 (Oman TV archive).

Valyuta islohoti: 1970-yil 7-mayda Ummon riali- Saidi rial joriy etildi va Gulf rupiyni almashtirdi.¹⁴ Bu valuta “Rial Saidi” deb atalgan. Bu pul tizimini mustahkamlash va milliy valutani xalqaro bozorda raqobatbardosh qilish uchun edi. Islohot milliy iqtisodiy mustaqillikning ramzi bo‘ldi.

Energetika: 1972-yilda Muskat va Salolada birinchi elektr stansiyasi ishga tushirildi. 1975-yilga kelib asfalt yo‘llar uzunligi 1000 km dan oshdi, elektr ta‘minoti poytaxt va yirik shaharlarda barqarorlashdi. Suyultirilgan gaz eksporti yo‘lga qo‘yildi. Gazdan energiya, sanoat va uy xo‘jaliklarida keng qo‘llanila boshladi.

Ta‘lim: 1970-yilda 3 ta maktab bo‘lsa, 1975-yilga kelib 103 ta, 1980-yilga kelib 363 ta maktab faoliyat yurita boshladi.¹⁵ Qobus ayollarning maktab va universitetga kirishini qo‘llab-quvvatladi. Xorijiy o‘qituvchilar jalb qilindi, so‘ngra milliy kadrlar tayyorlandi. Kattalar aholisining savodxonligi 96% dan oshdi.

1980-yilda, Milliy kunning o‘ninchi yilligida, u Ummon Renessansining yutuqlarini - yo‘llar, maktablar va shifoxonalarning qurilishi, kambag‘allikka qarshi imkoniyatlar yaratishni qayta ta‘kidladi. Bular faqat hukumatning emas, balki “ Ummon an‘analarining kuchi” bilan bog‘liq edi ; U shunday degan edi; “Har bir ummonlik bizning yutuqlar bilan faxrlanishi mumkin” maktablar qurildi; “Endi bizda 100 ming o‘g‘il va qizlar ta‘lim olmoqda”.

Sog‘liqni saqlash tizimi: 1970-yilda Ummon bo‘ylab atigi 2 ta shifoxona faoliyat olib borar edi. 1980-yilga kelib 28 ta zamonaviy shifoxona va 300 dan ortiq klinika ochildi.¹⁶ Qobus davrida tibbiy xizmat bepul bo‘ldi. Xorijda vrachlar, hamshiralar o‘qitildi. Epidemiologiya, emlash dasturlari, sanitariya yaxshilandi. Bolalar o‘limi kamaydi, o‘rtacha umr davomiyligi 77 yildan oshdi.

Madaniy sohada islohotlar: Ummon milliy merosini saqlash, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish va milliy san‘atni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Qadimiy qal‘alar (Bahla, Nizva, Rustaq va boshqalar) minoralar, tarixiy shaharlar restavratsiya qilindi.¹⁷ UNESCO merosi bo‘lgan bir nechta obidalar qayta tiklandi. Qobus “Ummon mo‘tadil Islom va tinchlik mamlakati” sifatida xalqaro imidj yaratdi.

Tashqi siyosat. tashqi siyosatni mustaqillik, betaraflik va pragmatizm tamoyiliga asosladi. Bu siyosat “do‘stlik hammaga, dushmanlik hech kimga”(friends to all, enemy to

¹⁴ Central Bank of Oman. History of Omani Rial, 2020.

¹⁵ Ministry of Education, Oman. Education in Oman: The Drive for Quality, 2012; shuningdek UNESCO Institute for Statistics.

¹⁶ World Health Organization & Ministry of Health, Oman. Health Vision 2050, 2015 (retrospective data 1970-1980).

¹⁷ Ministry of Heritage and Tourism, Oman. Cultural Heritage Report 1970-2020.

none) tamoyili sifatida tarixda qoldi.¹⁸ 1970-yillarning boshlarida yaqin chegaralardagi bevosita tahdidlar yo‘qligi bilan birga, Ummon o‘ta ehtiyotkorlik bilan tajribali, yuqori tayyorlangan harbiy, xavfsizlik tizimini yaratdi va saqlab qoldi. Biroq, Ummon o‘z qurolli kuchlarini tashqaridagi katta nizolarga judayam kam joylashtirdi; Quvaytni ozod qilish uchun “Cho‘l bo‘roni” operatsiyasi eng muhim istisnolardan biri bo‘ldi.¹⁹ Hatto Dhofarda qattiq janglar ketayotgan paytda Sulton Qobus asosiy e‘tiborni ichki barqarorlikka qaratadi. Sultonning puxta tashqi siyosati Ummonga qo‘shni davlatlar bilan nizolardan qochish va jahon siyosatida mustaqil o‘yinchi bo‘lishga yordam berdi.

U arab davlatlari bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlab, xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etdi. 1971-yil 29-sentabrda Ummon Birlashgan Millatlar Tashkilotiga, 30-oktabrda esa Arab Ligasiga hamda 1981-yilda Fors Ko‘rfazi Hamkorlik Kengashining muhim a‘zosi bo‘ldi.²⁰ 1971- yili Britaniya, Eron, Iordaniya, Pokiston va Hindiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1972-yilga kelib Ummon 30dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqa o‘rnatgan, Muskatda birinchi xorijiy elchixonasi ochilgan edi. Britaniya Ummon armiyasini modernizatsiya qilishga, Eron Zufar isyonini bostirishga yordam berdi. Shu vaqt davomida Qobus Ummonning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlagan, butun dunyo va mintaqaviy kuchlar bilan teng huquqli munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini namoyish etgan. Arab konsensusini buzgan holda u Misr va Isroil o‘rtasidagi muzokaralarni qo‘llab-quvvatlagan, bu birinchi Isroil va arab davlati o‘rtasidagi tinchlik shartnomasiga (1978) olib kelgan.

1978-yilda Kemp-Devid bitimlari tuzilgandan keyin Ummon Arab davlatlari Ligasi a‘zolari orasida Misr bilan diplomatik munosabatlarni buzmagani kamsonli davlatlardan biri edi. Bir yil o‘tib, Misr Isroil bilan tinchlik shartnomasini (1979) imzolagandan keyin Ummon va Isroil hukumatlari birinchi marta Maskat va Tel-Avivda savdo vakolatxonalari ochishgan.²¹

Xulosa

1970-1980-yillar Ummonning “qayta tug‘ilish davri” bo‘ldi. Sulton Qobusning hokimiyatga kelishi bilan yangi davr boshlandi. Bu davr “Muborak Renessans” nomi bilan tarixga kirdi. U mamlakatni siyosiy izolyatsiyadan chiqarib, zamonaviy davlat institutlarini shakllantirdi. Modernizatsiyaning dastlabki bosqichida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar Ummonni arab dunyosining eng barqaror davlatlaridan biriga aylantirdi. Sulton Qobus boshqaruvi “Ummon yo‘li” deb ataluvchi o‘ziga xos yo‘lni yaratdi.

¹⁸ Sulton Qobusning 1985-yil Milliy kun nutqidagi mashhur iborasi; qarang: Kechichian, Joseph A. Oman and the World: The Emergence of an Independent Foreign Policy. Santa Monica: RAND, 1995, p. 123.

¹⁹ Peterson, J.E. Oman in the Twentieth Century. London: Croom Helm, 1978, p. 201; shuningdek Cordesman, Anthony H. The Gulf and the Search for Strategic Stability. Boulder: Westview Press, 1984, p. 612.

²⁰ GCC Charter, Abu Dhabi, 25 May 1981; Ummon vakili – Yusuf bin Alavi bin Abdulla.

²¹ Katz, Mark N. “Oman and the Camp David Accords”, Middle East Policy, Vol. 7, No. 2 (2000), pp. 138-145.

Milliy madaniy meros saqlandi, Bahla qal’asi, frankincense yo‘llari kabi obidalar UNESCO ro‘yxatiga kiritildi. Qobusning siyosiy merosi- xalq farovonligi, ijtimoiy tenglik va milliy o‘zlikni saqlashga asoslangan modern davlat modeli hisoblanadi. U mustahkam milliy o‘zlik, tinchliksevar xalqaro obro‘ va barqaror rivojlanish yo‘lini meros qilib qoldirdi. Ushbu bosqich muvaffaqiyati keyingi o‘n yillikda keng ko‘lamli modernizatsiyaning asosini qo‘ydi. Mamlakat barqaror rivojlanish yo‘liga kirdi. Ummon tajribasidan shuni ko‘rish mumkinki, Islom, monarxiya va modernizatsiya bir-biriga zid emas - ular to‘g‘ri muvozanat va xalq ishonchi bilan birlashganda, eng muvaffaqiyatli va ishonchli rivojlanish modelini yaratishi mumkin ekan. Islohotlar bosqichma-bosqich xalq bilan birgalikda amalga oshirilishi ahamiyatlidir. Bu qisqa vaqtda o‘zining hayratomuz natijasini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allen, Calvin H. & Rigsbee, W. Lynn. Oman Under Qaboos: From Coup to Constitution, 1970-1996. London: Frank Cass, 2000, p. 26-34
2. Owtram, Francis. A Modern History of Oman: Formation of the State since 1920. London: I.B. Tauris, 2004, p. 137.
3. Sultan Qaboos’s first speech, 23 July 1970 (Oman Radio archive va Royal Court records).
4. Valeri, Marc. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. 2nd ed. London: Hurst, 2017, p. 67-69.
5. Skeet, Ian. Oman: Politics and Development. London: Macmillan, 1992, p. 19-25.
6. “Muborak Renessans” atamasi ilk marta 1980-yil Milliy kun nutqida ishlatilgan (Oman Ministry of Information archive).
7. OPEC Annual Statistical Bulletin 1971; Oman Ministry of Oil and Gas historical data.
8. Ministry of Transport and Communications, Sultanate of Oman. Fifty Years of Development 1970-2020. Muscat, 2020.
9. Sultan Qaboos speech on the opening of colour TV, 1975 (Oman TV archive).
10. Central Bank of Oman. History of Omani Rial, 2020.
11. Ministry of Education, Oman. Education in Oman: The Drive for Quality, 2012; shuningdek UNESCO Institute for Statistics.
12. World Health Organization & Ministry of Health, Oman. Health Vision 2050, 2015 (retrospective data 1970-1980).
13. Ministry of Heritage and Tourism, Oman. Cultural Heritage Report 1970-2020.

14. Sulton Qobusning 1985-yil Milliy kun nutqidagi mashhur iborasi; qarang: Kechichian, Joseph A. Oman and the World: The Emergence of an Independent Foreign Policy. Santa Monica: RAND, 1995, p. 123.

15. Peterson, J.E. Oman in the Twentieth Century. London: Croom Helm, 1978, p. 201; shuningdek Cordesman, Anthony H. The Gulf and the Search for Strategic Stability. Boulder: Westview Press, 1984, p. 612.

16. GCC Charter, Abu Dhabi, 25 May 1981; Ummon vakili – Yusuf bin Alavi bin Abdulla.

17. Katz, Mark N. “Oman and the Camp David Accords”, Middle East Policy, Vol. 7, No. 2 (2000), pp. 138-145.